

AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING MINTAQAVIY HUQUQIY ASOSLARI

*Umidjon Abdubannayev,
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi mustaqil tadqiqotchisi*

Annotasiya: Muallif tomonidan axborot makonida inson huquqlarini ta'minlashning mintaqaviy huquqiy asoslari o'rganilib, huquqiy hujjatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: So'z erkinligi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Xelsinki Yakunlovchi hujjati, Vindxuk deklaratsiyasi, Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi.

Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

- Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan qabul qilingan normalar;
- Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan normalar;
- Amerika davlatlari tashkiloti tomonidan qabul qilingan normalar;
- Afrika davlatlari tashkiloti tomonidan qabul qilingan normalar;
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tomonidan qabul qilingan so'z, fikr va axborot erkinligi bilan bog'liq mintaqaviy hujjatlar.

Mintaqaviy xalqaro huquqiy hujjatlar haqida so'z yuritganda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti²ning so'z erkinligini ta'minlash va himoya qilish institutlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shganini alohida e'tirof etish lozim.

Dastlab ushbu tashkilot tomonidan 1975-yil 1-avgustda Xelsinki Yakunlovchi hujjati (YXHK)³ qabul qilinib, unda Gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlik bo'limining Axborot deb nomlangan ikkinchi bandida ishtirokchi davlatlarga quyidagilarni bayon etadi:

- a) Axborot tarqalishi, undan foydalanish va u bilan almashishni yaxshilash;
- b) Axborot sohasidagi hamkorlik;

² Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) dunyo bo'ylab uch qit'a - Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyoni va bir milliarddan ortiq odamni o'z ichiga olgan 57 ta ishtirokchi davlatni o'z ichiga oladi. Tashkilot siyosiy-harbiy, iqtisodiy va ekologik hamda insoniylik me'zonlarini o'z ichiga olgan xavfsizlikka kompleks yondashuvga ega hisoblanadi. Shuning uchun u xavfsizlik bilan bog'liq keng ko'lamli muammolarga, jumladan, qurol-yarog' nazorati, o'zaro ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash choralari, inson huquqlari, milliy ozchilik, demokratlashtirish, terrorizmga qarshi kurash, iqtisodiy va atrof-muhitga oid faoliyatlarni ko'rib chiqadi. Barcha ishtirokchi davlatlar teng maqomga ega va qarorlar konsensus asosida qabul qilinadi.

³ O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 30-yanvarda YXHTga a'zo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o'sha yilning 26-fevralida 1975-yil 1-avgustda Xelsinki Yakunlovchi hujjatni, 1993-yil 27-oktabrda esa 1990-yil 21-noyabrda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasini imzoladi.

c) Jurnalistlarning ish sharoitlarini yaxshilash.

Shu bilan birgalikda, 1983-yil 6-sentyabr Madrid uchrashuvi Yakunlovchi hujjati, 1989-yil 15-yanvar Vena uchrashuvining Yakunlovchi hujjatlarida ham alohida axborotning erkinroq va kengroq tarqalishini yengillashtirish, axborot sohasida hamkorlikni rag'batlantirish va jurnalistlarning ish sharoitlarini yaxshilash uchun harakatlar boshlangan. Madrid va Vena uchrashuvlari Insoniylik mezonlari nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lib, Vena uchrashuvida bu sohadagi ishlarning ahvolini ko'rib chiqish maqsadida YXHT Insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasini chaqirishga qaror qilingan. "Insoniylik mezonlari" atamasi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ishtiroketuvchi davlatlarining o'z zimmalariga olgan inson huquqlari va asosiy erkinliklari hurmat qilinishini ta'minlash, qonun ustuvorligiga rioya qilish, demokratiya prinsiplari qaror topishiga ko'maklashish va shu bilan bog'liq holda demokratik institutlarni barpo etish, mustahkamlash va himoya qilish, shuningdek butun YXHT mintaqasida bag'rikenglik muhitini yaratish majburiyatlarini anglatadi⁴.

Bu asosan quyidagi uch bosqichda bo'lib o'tgan YXHTning Insoniylik me'zonlari konferensiyalari, ya'ni 1989-yil Parij, 1990-yil Kopengagen va 1991-yil Moskvada amalga oshirildi. Kopengagen konferensiyasining yakuniy hujjatida (1990-yil 29-iyun) ishtirokchi davlatlar bir ovozdan "har bir kishi o'z fikrini, shu jumladan muomala qilish huquqini erkin ifodalash huquqiga ega. Bu huquq o'z fikrida bo'lish hamda davlat hokimiyati tomonidan aralashuvsiz va davlat chegaralaridan qat'i nazar axborot hamda g'oyalarga ega bo'lish va ularni tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi"⁵ – deya ma'qulladilar.

1990-yil 21-noyabr Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi, o'z fikrini erkin izhor qilish erkinligi tasdiqlanganini ko'rishimiz mumkin.

1991-yil 3-oktabrdagi YXHK Insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Moskva kengashining hujjatida Ishtirok etuvchi davlatlar o'z fikrini izhor qilish erkinligi huquqini, shu jumladan, muloqot qilish huquqini hamda axborot vositalarining axborotlar, yangiliklar va fikr-mulohazalarni yig'ish, e'lon qilish va tarqatish huquqini tasdiqlaydilar.

Yuqoridagi hujjatlardan tashqari YXHK quyidagi hujjatlarda axborot bo'lgan inson huquqlariga e'tibor bergan:

YXHK ishtirokchi davlatlari madaniy merosi bo'yicha Krakov simpoziumi hujjati 1991-yil iyul;

⁴ Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar/Mas'ul muharrir: A.X. Saidov — yuridik fanlar doktori, professor. — T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012. — 8 b.

⁵ <https://www.osce.org/files/f/documents/d/0/14305.pdf>

International Conference on Education and Innovation

Milliy ozchilik masalalari bo'yicha YXHK ekspertlari kengashiga ma'ruzasi Jeneva, 1991- yil 19 iyul;

Demokratik institutlar bo'yicha YXHK ekspertlari seminarining YXHK kengashiga ma'ruzasi Oslo, 1991-yil 15-noyabr;

YXHK sammitining "O'zgarishlar davri da'vati" hujjati Xelsinki, 1992-yil 10-iyul;

YXHK Budapesht sammitining "Yangi davrda haqiqiy sheriklik sari" hujjati 1994-yil 6- dekabr;

YXHT Lissabon sammiti deklaratsiyasi 1996-yil 2–3 dekabr;

193-sonli qaror Ommaviy axborot vositalari erkinligi masalalari bo'yicha YXHT vakilining mandati Vena, 1997-yil 5-noyabr;

Xelsinki maslahatlashuvlari Yakuniy tavsiyalarining 79-bandiga (6-bob) muvofiq izohlovchi bayonot;

YXHT Istanbul sammiti deklaratsiyasi, 1999-yil 19-noyabr;

Yevropada xavfsizlik xartiyasi Istanbul, 1999-yil 19-noyabr.

Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan mintaqaviy hujjatlarga keladigan bo'lsak, birinchi navbatda Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi⁶dir. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi inson huquqlari bo'yicha huquqbuzarlik to'g'risidagi arizalarni shu konvensiya asosida ko'rib chiqadi.

Ushbu konvensiyasining 10-moddasida fikrni ifodalash erkinligi haqida so'z boradi, xususan:

1. Har kim o'z fikrini ifodalash erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z fikrida sobit qolish, davlat organlari aralashuviz va davlat chegaralaridan qat'i nazar axborot va g'oyalarni olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi. Ushbu modda davlatlarga radioeshittirish, televideniye yoki kinematografiya korxonalarini lisenziyalash tartibini joriy etishiga to'sqinlik qilmaydi.

2. Majburiyat va mas'uliyat yuklaydigan ushbu erkinliklarni ro'yobga chiqarish milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik yoki jamiyat osoyishtaligi manfaatlari nuqtai nazaridan qonunda ko'zda tutilgan va demokratik jamiyat taqozosi bo'lgan hamda tartibsizliklar va jinoyatchilikning oldini olish, sog'lik va ma'naviyatni asrab-avaylash, boshqa shaxslarning sha'ni yoki huquqlarini himoya qilish, maxfiy suratda olingan axborotni tarqatishning oldini olish yoxud odil sudlov xolisligining nufuzini ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqadigan muayyan rasmiyatchilik, shart-sharoit, cheklashlar va jazo choralari bilan bog'liq holda kechishi ham mumkin.

⁶ Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi, Rim, 1950-yil 4-noyabr.

Yevropa Kengashi qabul qilgan yana bir muhim hujjat 1982-yil 29-aprelda qabul qilingan Fikrni ifodalash va axborot erkinligi to'g'risidagi deklaratsiya⁷dir. Ushbu hujjatda haqiqiy demokratiya prinsiplari, huquq ustuvorligi va inson huquqlarining hurmat qilinishi o'zaro hamkorlik uchun asos yaratishi, shuningdek fikrni ifodalash va axborot erkinligi ana shu prinsiplarning tub unsur hisoblanishi e'tirof etilib, demokratiya va plyuralistik jamiyatning asosiy unsuri sifatida fikrni ifodalash va axborot erkinligi prinsiplariga o'zlarining qat'iy sodiqliklarini yana bir bor ta'kidlanadi.

Amerika davlatlari tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatga to'xtalsak, bu 1969-yil 22-noyabrdagi Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi (San-Xose) dir. Ushbu konvensiyaning 13-moddasi E'tiqodlar va ularni ifodalash erkinligi deya nomlanib, har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash huquqiga ega ekanligi, bu huquq har qanday axborot va g'oyalarni og'zaki, yozma, matbuot orqali, shuningdek badiiy ifoda vositasida yoki o'z istagiga ko'ra boshqa har qanday shaklda, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga olishi belgilab qo'yilgan. 14-moddasida esa javob qaytarish yoki raddiya huquqi ifodalangan.

Yana bir mintaqaviy hujjatni Afrika davlatlari tashkiloti 1981-yil 26-iyunda qabul qilgan bo'lib, ushbu hujjat Inson va xalqlar huquqlari to'g'risida Afrika xartiyasi (Nayrobi) deb nomlanadi. Ushbu xartiyaning 9-moddasida har bir inson axborot olish huquqiga hamda qonun doirasida o'z fikrini ifodalash va tarqatish huquqiga egaligi belgilangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tomonidan qabul qilingan so'z, fikr va axborot erkinligi bilan bog'liq mintaqaviy hujjat bu 1995-yil 26-mayda qabul qilingan MDHning Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi konvensiyasi⁸ (Minsk) hisoblanadi. Ushbu konvensiyaning 11, 32, 33-moddalari axborotga bo'lgan inson huquqlari bilan bevosita bog'liq normalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J.1. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. 570-b.
2. Abdullaev E. Ekologicheskie otnosheniya i ekologicheskoe soznanie. - Tashkent.: 1990, 219-b.
3. Arsenev V.R Zveri-bogi-lyudi. – M, 1991. S.160
4. Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat. – Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2012. 114-b.

⁷ Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasining 70-sessiyasida qabul qilingan.

⁸ Ushbu Konvensiya 1998-yil 11-avgustdan e'tiboran Belarus Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasida kuchga kirgan.